



Mirshod Siddiqov

O'zbekiston FA Tarix instituti tayanch
doktoranti.

Email: misha.smb.97@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15486988>

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTON SSRDA XALQ TA'LIMI HOLATI

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida, Ikkinchi jahon urushi yillarida xalq ta'limi holati, sovet hokimiyati olib borgan siyosat natijasida o'quvchi va o'qituvchilarga yetarlicha e'tibor berilmaganligi, ularni majburiy mehnat ishlariga jalb etilganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligi, ta'limi tizimi, front, maktab, o'qituvchi, majburiy mehnat, ariza, paxta.

Ikkinchi jahon urushi sovet imperiyasi tarkibida bo'lgan O'zbekiston SSR xalqi uchun ham og'ir sinovlarni boshdan kechirishga majbur qildi. Urush yillarida o'zbek xalqi askar berishdan tashqari, front ehtiyojlarini qoplash uchun juda mashaqqatli va zahmatli mehnat qilishga safarbar etildi. Sovet hokimiyati tomonidan O'zbekiston SSRning asosiy xomashyo manbaiga aylantirish siyosati respublikaning ijtimoiy va iqtisodiy hayotini tang ahvolga solib qo'ydi. Barcha imkoniyatlarni urush ehtiyoji uchun yo'naltirilishi ijtimoiy sohalarning juda og'ir ahvolga tushib qolishiga olib keldi. Bu esa ta'lim sifatini keskin tushib ketishiga va shu soha xodimlarining ijtimoiy ta'minotini og'ir holatga keltirib qo'ydi.

Ma'lumki urush yillarida sovet hokimiyati olib borgan siyosat natijasida o'quvchi va o'qituvchilarga, ilmiy xodimlarga yetarlicha e'tibor berilmadi. Urush ta'lim sohasiga jiddiy ta'sir qildi. Bu borada qonunlar qabul qilingan bo'lishiga qaramay, ularning ijrosi, hayotga tadbqiq etilishi borasida muammolar ko'p edi. Bunga bir nechta omillarni sabab qilib ko'rsatish mumkin:

- o'qituvchilarning armiya saflariga jalb etilishi ta'lim tizimini izdan chiqardi. Shuningdek, o'qituvchilar boshqa ishlar (*paxta terimi, tashviqot ishlari*)ga jalb qilindi;
- maktab binolari evakuatsiya qilingan harbiy qismlarga, bolalar uylariga berildi. Oqibatda darslarning kuniga 3 – 4 smenada olib borilishi vaziyatni yanada murakkablashtirdi;
- yuqori sinf o'quvchilarning ko'p qismi zavod va korxonalarga mehnatga jalb etildi. Natijada o'quvchilar soni yildan yilga kamayib bordi;
- armiya saflariga ketgan erkak o'qituvchilarning o'rnini bosish maqsadida kadrlar yetishtirishda qisqa o'quv kurslar tashkil etildi. Qilingan bu chora-tadbirlar pedagogik kadrlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lsada, biroq ta'lim tizimining sifatiga jiddiy ta'sir qildi;
- ta'lim tizimida yetarlicha mablag' ajratilmadi, natijada o'qituvchilarning moddiy ta'minoti og'ir ahvolda qoldi.

Shuningdek, Ikkinchi jahon urushi yillarida o'qituvchilarning barcha say-harakatlari front manfaatlariga yo'naltirilgan. Bu esa ta'lim tizimida ularning sonini keskin kamayib ketishiga sabab bo'ldi. Jumladan, urushning birinchi kunlaridayoq O'zbekistondan 6 mingga yaqin o'qituvchilar armiya saflariga majburiy tarzda jalb etilgan.[10; 111] Natijada o'qituvchilar orasida ayollarning ulushi sezilarli darajada oshgan. 1941-yilda O'zbekistonda 35296 nafar (*shundan ayollar umumiy o'qituvchilar sonining atigi 31,7 foizini tashkil qilgan*), 1942/43-o'quv yilida esa o'qituvchilar soni keskin kamayib, 30259 nafarga tushib qolgan. Urush yillaridagi o'qituvchilar soni quyidagicha edi.

1-jadval

	1941	1942	1943	1944
Jami o'qituvchilar	35296	33960	30259	37786
Shundan ayollar	11215	9099	14052	19669

1942-yilda ayol o'qituvchilarning soni kamaygan. Bunga asosiy sabab sifatida ularni kasalxonalarga hamda boshqa ishlarga jalb etilganligi bilan izohlash mumkin. Chunki urushning dastlabki yillarida yaradorlar sonining oshishi hisobiga tibbiyot xodimlariga bo'lgan talab ortib borgan edi. 1943-yildan boshlab esa o'qituvchilar o'z sohalariga qaytib ta'lim berishni davom ettirganlar.

1941 – 1944-yillarda o'qituvchilarning milliy tarkibi quyidagicha bo'lgan.

2-jadval

Yillar	Jami o'qituvchilar	O'zbeklar		Boshqa xalqlar		Rus va boshqa yevropa vakillari	
		Jami	Shu jumladan ayollar	Jami	Shu jumladan ayollar	Jami	Shu jumladan ayollar
1941	35296	19869	5429	4138	717	11289	5069
	Foizlarda	56,3 %	15,4 %	11,7 %	2 %	32 %	14,3 %
1944	37786	14830	8422	5021	2581	17935	8666
	Foizlarda	39,2 %	22,3 %	13,3 %	6,8 %	47,4 %	22,9 %

Jadvalga ko'ra, 1941 – 1944-yillar oralig'ida o'zbek millatiga mansub bo'lgan o'qituvchilar 56,3 % dan 39,2 % ga kamaygan, boshqa xalqlar (*tojik, qozoq, qirg'iz va boshqalar*) 1,6 % ga, rus va boshqa yevropa vakillari esa (*tatarlar ham kirgan*) 15,4 % ga oshgan. 1944-yilda boshqa millatga mansub bo'lgan o'qituvchilar o'zbek

o'qituvchilari sonidan 8,2 % ortiq edi. Bu respublikaga xalqlarning ko'chirilganligi hisobiga yuz berdi.

Ta'lim tizimining eng og'riqli muammosi, bu – fan o'qituvchilarning yetishmasligi edi. Bu davrda o'qituvchi kadrlar tayyorlash jiddiy muammoga aylandi. Shu maqsadda qisqa o'quv kurslari tashkil etildi, ba'zi fanlar (*musiqa va rasm chizish*) o'quv dasturidan chiqarildi.[19; 240] Bundan tashqari, oliy va o'rta pedagogika o'quv yurtlari o'qituvchilarning yetishmovchiligini qoplash maqsadida qisqa tayyorlov kurslar orqali o'qituvchilarni ommaviy tayyorlash boshlandi. O'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qoplash maqsadida kadrlar tayyorlashda har bir viloyatda kunduzgi va kechki o'quv kurslari ochilgan. Masalan, Andijon kunduzgi va kechki o'qituvchilar instituti 1941/42-o'quv yilida 17 yoshdan 40 yoshgacha bo'lganlarni qabul qilgan. Qabul qilingan a'lochilar stipendiya, boshqa joydan keladiganlar turar-joy bilan ta'minlangan.[18; 65] O'qituvchi tayyorlash kurslari 10 oyga mo'ljallangan bo'lishiga qaramay, kunlik dars soatlarining ko'paytirish evaziga (*mashg'ulot 6 soat o'rniga 8–10-soatdan davom etgan*) 10 oydan 6 oyyu 4 kunga tushirilgan. [21; 173] Buning o'ziga xos bir nechta sabablari bor edi: *birinchidan*, o'qituvchi kadrlarga bo'lgan zaruriyatning ortganligi; *ikkinchidan*, mablag'ning kamligi; *uchinchidan*, o'quvchilarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'min etilmasligi.

Ba'zi viloyatlarda esa o'qituvchi kadrlarning yetishmasligi natijasida kolxozlarning tashabbusi bilan mablag' ajratilib, yoshlarni o'quv kurslariga yuborish holatlari uchrab turgan. Misol uchun, Buxoro viloyat Otbozor qishloq soveti kolxozdagi maktabni o'qituvchilar bilan ta'minlash uchun yosh kolxozchilardan Mustafoyev, Muharram G'ofurova va boshqalarni Buxoro bilim yurtiga o'qishga yuboradilar. Har bir o'quvchi uchun 1800 so'mdan moddiy yordam berib turilgan.[1]

1941 – 1944-yillarda bunday kurslarda 16081 nafar (*yillar kesimida 1941-yilda 3865 ta, 1942-yilda 7356 ta, 1943-yilda 4860 ta, 1944-yil umumiy hisobda esa 16081 nafar*) pedagog kadrlar tayyorlangan. Shunga qaramay, respublika maktablari 1943/44-o'quv yilini 6700 nafar o'qituvchi yetishmasligi bilan boshladi.[23; 54] Natijada o'qituvchi tayyorlashga kirishgan maktablarning 8 – 10-sinflariga pedagogika

fanini kiritilishiga, pedagogik tayyorgarlikdan o'tgan 8-sinf o'quvchilari boshlang'ich maktablarning 2-sinflariga, 9 – 10-sinf o'quvchilari esa 3-sinflariga o'qituvchilik qilishgan. [9] Harbiy xizmatga yaroqli bo'lgan o'qituvchilarning frontga, mehnat ishlariga jalb etilishi, maktablarda darslarning o'tilmay qolishi ta'lim sifati darajasini tushib ketishiga sabab bo'lgan. Masalan, rasm va chiroyli yozuv o'qituvchisi Toshkanboyevning Farhod GESni qurilishiga jalb etilishi bilan ko'p darsi o'tilmay kelingan. [14; 121] Shuningdek, o'qituvchilarning o'z kasblari bilan shug'ullanishlari uchun murojaatlari ham saqlanib qolgan. Masalan, o'qituvchi Hilol Karimov 1943-yilda O'zbekiston SSR XKS raisi — Abdurahmonovga quyidagi mazmunda ariza bilan murojaat qiladi: *“1941-yil 25-iyulda fashist Germaniyasiga qarshi armiyaga yordam berish uchun Sverdlov shahridagi 680-qurilish jamoasida ishlamoqdaman, kelganimga 2 yil bo'ldi. Sizdan talabim shuki, 1942-yil 30-iyulda 14088-sonli chiqarilgan qarorga asosan o'qituvchilarni, ya'ni zavodda ishchi xizmatida bo'lganlarni bo'shatib, o'z vazifalari bilan ta'minlansin deyilgan. Biz bu yerdagi o'zbek o'qituvchlari bir qancha qiyinchiliklar asosida olgan ilmimizga achinib, yer qazish ishida ishlab kelimiz. Talabim shuki, biz Hilol Karimov, Abduqodir Hayitmetov kabi o'qituvchilarni o'z ixtiyorlaringizga chaqirib olsalaringiz, biz O'zbekistonda o'z vazifamizga ishlasak”*. [24; 42-43] Bu esa urush yillarida kadrlarni front maqsadlariga yo'naltirilganligini yana bir isbotidir. Yuqoridagi omillar natijasida bir sinfga 2 yil qolishning ortib borishiga sabab bo'ldi. Masalan, 1941/42-o'quv yilida bir sinfda ikki yil qolgan o'quvchilar 7,3 % ni, 1944/45-o'quv yilida esa 14,4 % tashkil etgan. [4; 113]

Sovet o'qituvchisidan faqat bolalar tarbiyachisigina bo'lib qolmasdan, balki u qishloqlarda katta madaniy kuch, tashviqotchi, kolxozchilarni yanada yaxshiroq va samaraliroq ishlashga ilhomlantiradigan, har bir ishda shaxsan na'muna ko'rsatuvchi, dalalarda maktab bolalarni samarali mehnatini tashkil eta oladigan shaxs sifatida namoyon bo'lishi talab etilgan. O'qituvchi xotin-qizlar maktab ishlaridan tashqari, o'z o'quvchilari bilan birgalikda qishloq xo'jalik ishlarida, mudofaa fondlariga mablag' to'plash, shanbalik va yakshanbaliklarni uyushtirish, askarlar va leningradliklarning bolalari uchun sovg'a salomlar tayyorlashda, rangli metall va temir-tersaklar

to'plashda, gospitallarni otaliqqa olishda va boshqa ishlarda faol qatnashishga majbur qilinganlar. Bu vaqtda ta'lim ikkinchi darajaga tushib qoldi. Xalq ta'limi muassasalari xodimlarining asosiy vazifasi mudofaa va xo'jalik ishlarida bevosita faol ishtirok etishdan iborat bo'lib qolgan.

Bundan tashqari, sovet hukumati o'qituvchilardan targ'ibot va tashviqot ishlarida ham keng foydalangan. O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligining 1941-yil 19-iyuldagi "Urush sharoitida shahar maktablari o'quvchilari va o'qituvchilarining ishi to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, barcha o'qituvchilarni (*birinchi navbatda, tarix, konstitutsiya, geografiya, til va adabiyot o'qituvchilarini*) aholi o'rtasida targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borish belgilangan edi.[16; 2] Bundan ko'zlangan maqsad aholi orasida fashizmga nisbatan nafrat uyg'otish, Moskva tomonidan qabul qilingan qarorlarni yoyish va siyosiy voqealardan xabardor qilish bo'lgan.

Ba'zi tuman partiya qo'mitalari xalq maorifi muassasalarini qo'llab-quvvatlash va ularga yordam berish o'rniga o'qituvchilarning qishloq sovetlariga hamda kolxozlarga doimiy ravishda bog'lab qo'yganlar. Shuningdek, maorif kadrlarining boshqa ishga jalb etilishi oqibatida qo'nimsizlik ko'p bo'lgan. Masalan, 1944/45-o'quv yili davomida viloyat, shahar va tuman maorif bo'limlarining 179 mudiridan 49 kishi, 849 o'rta maktab mudiridan 166 tasi almashtirilgan. [5; 6]

Urush yillarida xalq ta'limi xodimlari, o'qituvchilari urush keltirib chiqargan barcha qiyinchiliklarga qaramay, yoshlarga ta'lim berdilar. Bu davrda maktablar ishida jiddiy muammolar vujudga kelgan. Masalan, maktab binolari, respublikaga ko'chirib keltirilgan harbiy korxonalar, gospitallar, ishchilarning yotoqxonalar va urush bilan bog'liq bo'lgan boshqa maqsadlar uchun foydalanishga topshirilgan. 1941/1942-yillarda urushdan oldin qurilgan 360 ta shahar [4; 101] (*boshqa adabiyotda 200 dan ortiq deb ko'rsatilgan* [3; 46]) maktab binolarining boshqa maqsadlar uchun foydalanishi tufayli respublikada maktablar soni kamayib ketgan: (*3 – 4-jadvalda yillar kesimida maktablar va sinflar soni berilgan*).

3-jadval

Maktablar soni

Maktab bosqichlari	1940/41	1941/42	1942/43	1943/44
Boshlang'ich	2651	2470	2052	1873
To'liqsiz o'rta	1670	1679	1773	1827
O'rta	474	496	545	733
Jami	4795	4645	4374	4433

Sinflar miqdori

O'quv yili	1 – 4-sinf	5 – 7-sinf	8 – 10-sinf	Jami
1940/41	288668	10279	1392	40339
1941/42	25979	11268	1385	38632
1942/43	23089	10966	1232	35287
1943/44	21355	12082	1671	35108

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, 1943/44-o'quv yilida maktablarning umumiy soni 1940/41-o'quv yiliga nisbatan mos ravishda 362 maktabga, sinflar soni esa 5231 taga kamaygan.[22; 49] Natijada ko'p smenali sinflar tizimi vujudga kelgan. Toshkent, Samarqand kabi shaharlardagi aksariyat maktablar 3 hatto 4 smenada ishlash tizimiga o'tgan.[19; 240] Ta'lim tizimida ham o'zgarishlar sodir bo'lib, darslar ertalab soat 8 dan kechki vaqtgacha davom etardi. Hattoki tanaffuslar oralig'idagi vaqtlar ham qisqartirilgan. Bunday tartib maktab va o'quvchilar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Har bir dars urushga bog'lab olib borilgan. Bilim yurti va mahallarda tashviqot orqali har oyda urushdagi xalqaro ahvolga doir ikki marta ma'ruzalar o'tkazilgan.

Ta'lim sohasida xato va kamchiliklar ham yetarlicha edi. Asosiy kamchilik – ta'lim rejasining bajarilmaganligida bo'lgan. Yuqori sinf o'quvchilarini korxona ishlariga jalb etish orqali frontga ketgan malakali ishchilar o'rnini bosishi ko'zda tutilgan. Bolalarning o'qishdan ajratib qishloq xo'jaligi ishlariga safarbar qilinishiga qarshi hech qanday chora ko'rilmagan. O'quv yili boshidagi o'quvchilar soni va yil

oxirida borib kamayib borgan. Umuman olganda 1942/43-o'quv yili oxirida bolalarni ta'limga jalb qilish rejasi 23,4 foizga bajarilmagan.[22; 5] Buning bir nechta sabablari bor:

birinchidan, ko'pgina oilalarda o'smir o'quvchilar yetim qolgan kichik farzandlarning birdan-bir boquvchilari bo'lib qolgan edilar. Shuning uchun yuqori sinflarda o'qiyotgan yigit va qizlarning bir qismi maktabni tashlab ketishga hamda ishlash uchun sanoat korxonalariga, kolxoz va sovxozlarga borishga majbur bo'ldilar;

ikkinchidan, dars qoldirgan o'quvchilarning ko'pchiligida kiyish uchun kiyim-kechakning yo'qligi edi. O'quvchilarda oyoq kiyimning yo'qligi, ustki kiyimlarining yupqaligi, kasallanish va boshqa sabablar natijasida dars qoldirganlar. Natijada maktablarda o'quvchilar soni yildan yilga kamayib bordi. Quyidagi jadvalda sinflar kesimida o'quvchilar sonining kamayib borishini ko'rish mumkin.

4-jadval

O'quv yili boshidagi o'quvchilar soni (minglab kishilar)

Sinflar kesimida	1940/41	1941/42	1942/43	1943/44
1 – 4-sinf	895,1	801,7	634,8	602,0
5 – 7-sinf	318,3	342,3	306,9	298,4
8 – 10-sinf	38,6	35,2	25,5	35,0
Jami	1252,0	1179,2	967,2	935,4

Masalan, 1941/1942-yillarda Samarqand viloyat maktablarida 7–9-sinflarida 4300 kishi o'qigan, ular 1944-yilda 10 yillik maktabni bitirib chiqishlari kerak edi, aslida esa o'sha yilda maktabni faqat 388 kishi bitirdi.[6; 102] Chunki ularning bir qismi ishlab chiqarishga kolxoz va sovxozlarga ketib qolgan bo'lsa, bir qismi esa dars mashg'ulotlaridan ajratib dala ishlariga jalb etilgan.

Markazning topshirig'i bilan O'zbekiston Maorif xalq komissarligi 1941-yil 8-sentabrda 1852-sonli buyrug'ini qabul qilgan. [16; 34] Unga ko'ra, respublikadagi barcha maktab o'quvchilarining paxta yig'im-terimiga keng ravishda qatnashishlari majburiy etib belgilangan. Hattoki, quyi sinf o'quvchilari ham paxta terimidan chetda

qolmagan. O‘zbekiston Maorif xalq komissari – I.Razakov¹ 1942/43-o‘quv yilida boshlang‘ich va o‘rta maktablarning 4 – 5-sinflar dars rejasini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi. O‘zbekiston SSRdagi ba‘zi bir tumanlarida paxta yig‘im terimning juda keskin ahvolda bo‘lishi munosabati bilan 5-sinfdagi o‘qish rejasini qisqartirib o‘quvchilarni qishloq xo‘jalik ishlariga safarbar qilishga to‘g‘ri keldi. 4-sinf o‘quvchilariga kelgan vaqtda esa qoida bo‘yicha ular paxta terimiga faqat qishloq maktablaridagina safarbar qilinishi belgilab berilgan. [17; 129] Biroq ayrim vaqtlarda paxta tayyorlash bilan bog‘liq keskin vaziyat 4-sinfdagi o‘quvchilarni ham paxta terimiga majburiy jalb qilinishiga olib keldi. SSSR XKS va O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi “Paxta yig‘im terimida qishloq va shahar maktablarining o‘quvchilarini, oliy o‘quv yurtlarining talabalarini va muassasa hamda tashkilotlari xizmatchilarining safarbar qilish to‘g‘risida”gi 1943-yil 9–11-oktabrda 1455-sonli qaroriga ko‘ra, paxtani yig‘ish uchun shahar maktablari o‘quvchilarini 6-sinfdan, qishloq maktablari o‘quvchilarini 5-sinfdan, oliy o‘quv yurti talabalarni, shuningdek, muassasa va tashkilotlarning 20 % dan 30 % gacha xizmatchilari paxta terimiga jalb qilingan.[11] Yuqoridagi holatlar natijasida, respublikada 1944/1945-o‘quv yilining boshida 162 ming bola maktabga tortilmay qolgan, 90 ming o‘quvchi o‘quv yili davomida mashg‘ulotlarga qatnamay qo‘ygan.[5] Respublikada shunday viloyatlar borki, bu joylarda o‘rta maktabni tamomlagan 1 ta ham o‘zbekni topilmasligi juda achinarli holat edi. Masalan, Surxondaryo viloyatida aholidan 10 yillik maktabni bitirgan birorta o‘zbek yigiti yoki qizi yo‘q edi. Qashqadaryo viloyatida esa bor yog‘i 15 ta, Andijon shahar maktabi ikki yildan (1944 – 1945-yillar) buyon 10-sinfni bitirgan birorta ham o‘zbek kadri chiqarmagan. Holbuki, Andijon urushdan avval oliy maktablarda kiruvchi o‘zbek yoshlari tayyorlashning eng katta markazlaridan biri edi. Odatda yuqori sinf o‘quvchilarning asosiy qismi yoki 8-sinfga o‘tkazilgan o‘quvchilarning 80–85 % turli sabablar bilan maktabni bitirmay chiqib ketadilar.[13; 30] Ayniqsa qishloq maktablarida katta yoshdagi o‘quvchilarni maktabga yubormay, ulardan mehnat kuchi

¹ 1941-yil 16-iyulda Is‘hoq Razzoqov O‘zbekiston SSR Maorif xalq komissari qilib tayinlangan. Ungacha esa O‘zbekiston SSR Davlat Plan Komissiyasining raisi sifatida ishlab kelgan.

sifatida foydalanish keng tus olgan. Oqibatda ular ta'lim jarayonidan uzilib qolgan. Qishloq maktablarining ko'pchiligida o'quvchilarning 40 – 50 % darslarga qatnagan, ba'zi tumanlardagi maktablarda esa mashg'ulotlar butunlay to'xtab qolgan. O'quvchilarni mashg'ulot vaqtida maktabdan olib qolmaslik to'g'risida maxsus qaror chiqarilgan bo'lsada, biroq Moskva tomonidan ko'rsatilgan qattiq talablarni bajarish maqsadida kolxoz rahbarlari ham o'quvchilarni haftalab, oylab maktabdan olib qolib, dalada ishlatilgan. Masalan, Nukus qishloq sovetidagi “Mehnat guli”, “O'zgarish”, “Qizil qurilish” kolxozlarining raislari – Nurmatov, Normatov va Polvonovlar 5 – 7-sinf o'quvchilardan har kuni 45 – 50 bolani majburiy ravishda maktabdan olib qolib, dalada ishlatganlar. Shu paytda 6-sinfda 29 boladan 3 ta bola darsda qatnashgan.[12] Ta'til vaqtlari ham o'quvchilar mehnat ishlariga jalb qilingan. Maktab yoshidagilarni majburiy ravishda dala ishlariga jalb etish, *birinchidan*, ularning jismoniy va ruhiy holatiga ta'sir o'tkazmasdan qolmagan; *ikkinchidan*, darslarni yaxshi o'zlashtirmasliklariga sabab bo'lgan.

Urushdan keyingi yillarda ham ta'lim rejasini bajarilmaganligini ko'rish mumkin. 1946-yil Toshkent shahar partiya komitetida shahardagi maktab, maorif xodimlari va otaliq tashkilotlarning kengashida o'quv yoshdagi 5 – 6 minglab bolalar maktabdan chetda qolib ketganligi ta'kidlangan.[7] Buxoro viloyatidagi maktablarda 1945/46-o'quv yilida o'quvchilarning 78 foizigina maktablarga jalb qilingan.[8] Maktab binolari yomon ahvolda ekanligi, yoqilg'i bilan yetarli ta'minlanmaganligi, natijada qattiq sovuqlarda va yog'ingarchilikda o'quvchilarning muntazam dars qoldirishlariga sabab bo'lgan. Tarbiyaviy ishlar olib borilmasligi natijasida maktab mulkiga zarar yetqizish, o'quvchilar o'qituvchilar bilan odobli munosabatda bo'lmashlik holatlari ham aniqlangan. Bunga o'qituvchi va o'quvchilarning ommaviy qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etilish natijasida o'qituvchilarning nufuzini pasayishi, ko'p holatda maktablarda o'quv mashg'ulotlari olib borilmasligi sabab bo'lgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бухоро ҳақиқати. 1942-йил 28-август.
2. Коммунист. –1945. –№6 –Б.5.

3. Народное образование в Узбекской ССР за 25 лет (1924 – 1949). –Ташкент, 1949.
4. Қодиров Е.Қ. Ўзбекистон умумтаълим мактабларининг ривожланиш тарихи (1917 – 1975). –Тошкент, 1979.
5. Коммунист. –1945. –№6
6. Қодиров Е.Қ. Ўзбекистон умумтаълим мактабларининг ривожланиш тарихи (1917 – 1975). –Тошкент, 1979.
7. Қизил Ўзбекистон. 1946 йил 26 июн.
8. Қизил Ўзбекистон. 1946 йил 4 август
9. Қизил Ўзбекистон. 1941 йил 29 ноябр.
10. Советский союз в годы великой отечественной войны. –Москва.1985.
11. СП УзССР СНК. 1943 г Октябрь
12. Хоразм ҳақиқати. 1946 йил 13 ноябр.
13. Ўзбекистон ССР Олий Советининг еттинчи сессияси. 5–6 июн 1945 йил (Стенография ҳисоботи). –Тошкент: Ўзбекистон ССР Олий Советининг нашри, 1946.
14. О‘zbekiston PAA. 58- jamg‘arma, 20- ro‘yxat, 935-yig‘ma jild.
15. O‘zMA. R-94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4038-a-yig‘ma jild.
16. O‘zMA. R-94- jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4038-e-yig‘ma jild.
17. O‘zMA. R-94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4038-ch-yig‘ma jild.
18. O‘zMA. R-94- jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4086-yig‘ma jild.
19. O‘zMA. R-94- jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4215-yig‘ma jild.
20. O‘zMA. R-94-fond, 5-ro‘yxat, 4218-yig‘ma jild.
21. O‘zMA. R-94- jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4627-a-yig‘ma jild.
22. O‘zMA. R-94- jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4697-yig‘ma jild.
23. O‘zMA. R-837-fond, 32-ro‘yxat, 2891-yig‘ma jild.

СОСТОЯНИЕ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация: В данном исследовании анализируется состояние народного образования в годы Второй мировой войны, политика советской власти, приведшая к недостаточному вниманию к учащимся и учителям, а также их привлечение к принудительному труду.

Ключевые слова: Народный комиссариат просвещения Узбекской ССР, система образования, фронт, школа, учитель, принудительный труд, заявка, хлопок.

THE STATE OF PUBLIC EDUCATION IN THE UZBEKISTAN SSR DURING THE YEARS OF WORLD WAR II

Abstract: This research study analyzes the state of public education during World War II, the policies pursued by the Soviet authorities, which resulted in insufficient attention being paid to students and teachers, and their involvement in forced labor.

Key words: People's Commissariat of Education of the Uzbek SSR, education system, front, school, teacher, forced labor, application, cotton.